

XOR SAN'ATINING TARIXI VA TARAQQIYOT YO'LLARI

Ismatova Oyniso Hikmat qizi

O'zMPU "Musiqqa ta'limi va san'at" mutaxassisligi

1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: **Lutfullayev Anvar Qudratovich**

O'zMPU "Musiqqa va san'ati" kafedrası professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada xor san'atining kelib chiqishi, uning musiqiy madaniyatdagi o'rni va rivojlanish bosqichlari yoritiladi. Xor ijrochiligida ovozlarni uyg'unlashtirish, vokal texnikasi, ansambl birligi va jamoa mahorati kabi asosiy omillar tahlil qilinadi. Xor musiqasining qadimgi marosimlardan tortib qo'shiq va raqs san'at darajasigacha bo'lgan evolyutsiyasi tahlil qilinib, turli davrlarda yuzaga kelgan uslubiy o'zgarishlar va kompozitorlik an'analari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Xor san'ati, xor kapellasi, qo'shiq va raqs, kompozitor, musiqqa, a kapella qo'shiqlari, ijod namunalari, marosim qo'shiqlari.

ИСТОРИЯ И РАЗВИТИЕ ХОРОВОГО ИСКУССТВА

Исматова Ойнисо Хикмат кызы

Студентка 1 курса магистратуры специальности

«Музыкальное образование и искусство»

Узбекского государственного университета музыки

Научный руководитель: **Лутфуллаев Анвар Кудратович**

профессор кафедры «Музыка и искусство»

Узбекского государственного университета музыки

Аннотация: В статье рассматриваются истоки хорового искусства, его роль в музыкальной культуре и этапы развития. Анализируются основные факторы хорового исполнительства, такие как гармонизация голосов, вокальная техника,

ансамблевое единство и мастерство коллектива. Анализируется эволюция хоровой музыки от древних ритуалов до уровня песенно-танцевального искусства, рассматриваются стилистические изменения и композиторские традиции, возникшие в разные периоды.

Ключевые слова: Хоровое искусство, хоровая капелла, песня и танец, композитор, музыка, песни а cappella, творческие примеры, обрядовые песни.

HISTORY AND DEVELOPMENT OF CHORAL ART

Ismatova Oyniso Hikmat kizi

1st year master's student of the specialty

"Music Education and Art" of the Uzbek State University of Music

Scientific supervisor: **Lutfullayev Anvar Kudratovich**

professor of the department

"Music and Art" of the Uzbek State University of Music

Abstract: This article discusses the origins of choral art, its role in musical culture and stages of development. The main factors in choral performance, such as harmonization of voices, vocal technique, ensemble unity and team skills, are analyzed. The evolution of choral music from ancient rituals to the level of song and dance art is analyzed, and the stylistic changes and compositional traditions that have arisen in different periods are considered.

Keywords: Choral art, choral chapel, song and dance, composer, music, , a cappella songs, creative examples, ritual songs.

Xor san'ati insonlar qalbida chuqur estitik zavq uyg'otib, ularni birlashtiradi, ma'naviy kamolotini yuksaltiradi hamda badiiy didini kamol topishiga yordam beradi. Xor san'ati – musiqa san'atining janrlari orasida o'zining ommaviyligi va demokratik xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Hozirgi kunda u keng tarqalgan asl xalq san'ati

turiga aylangan. Bu san'at turi insonlarni musiqiy tarbiyalashda, estetik qarashlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Odamlarning bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lgan ma'naviy ongi, didiga, bir yagona g'oya, yagona ijroni maqsad qilib, so'z va musiqadagi tuyg'uni jamoa bo'lib ijro etish, ularni yanada jipslashtiradi. Bu san'at doimo xalq qo'shiqchilik ijodiyoti bilan bog'liq bo'lib, turli millatlar musiqa madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida katta ahamiyatga egadir.

XIX asrning ikkinchi yarmida asta-sekin musiqasevarlar jamiyatlari o'z faoliyatlarini boshlagan. Bunday jamiyatlardan – “Lira” deb nomlangan xor jamiyati kapelmeysteri V.Leysek tomonidan tashkil etilib, mahalliy xalqlarni yangi san'at turiga qiziqtirgan. Bu jamiyatning faoliyati ta'sirida turmush sharoiti, hayot tarzida o'zgarishlar ro'y berdi. Dunyo madaniyatiga bo'lgan qiziqish tobora avj olib bordi. V.Leysek uyushtirgan konsertlarda jahon tan olgan kompozitorlar – Meyerber, J.Verdi, M.Glinka va A.Dargomijskiy kabilarning operalaridan xorlar birinchi bor ijro etilgan va tinglovchilarda katta taassurot qoldirgan. Ko'plab qadimiy musiqiy folklor namunalari ilgari ham allomalarimiz tomonidan tadqiq etilganligi barchaga ma'lum. Ijod namunalari ko'proq yilning ma'lum bir kunlari, ya'ni marosimlari bilan bog'liq bo'lgan. Misol sifatida o'zbek xalqining ijodiyotini keltirish mumkin. «Lola bayrami», mehnat qo'shiqlaridan – “Xashar”, “Paxta teradi”, “Suz xotin”, to'y marosim qo'shiqlari – “Yor-yor”, “O'lan”, bolalar ijro etadigan – “Boychechak”, “Ramazon qo'shiqlari”, “Laylak keldi”, “Oftob chiqdi”, “Choriy chambar” va shunga o'xshash turli mavzulardagi qo'shiqlarni xor ijrochiligi shaklida ko'rish mumkin. Ular faqat tabiat qo'ynida, aniq bir marosimlarda o'z-o'zidan ijro etilgan. Bizning tushunchamizdagi dirigorlarda ehtiyoj bo'lmagan. Xor ijrochiligi sahna sharoitiga ko'chgandan so'ng rahbar boshqarib borishi lozimdir. Turli ko'rinishdagi jamoa bo'lib kuylash jarayoni o'zbek folklorida ayrim janrlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Xor sa'natining birinchi pog'onasi sifatida – qo'shiq va raqsning bir-biriga uyg'unlashib, alla janrining paydo bo'lishini hisoblash mumkindir. Qo'shiqning asosiy matnini yallachi raqs bilan birgalikda ijro eta boshlaydi, naqarotni esa bir ovozda bo'lsa-da kichik ashulachilar guruhi jo'r bo'lib ijro etadi. Shuningdek, jamoa bo'lib ijro etish darvishlar xonishlarida ham ko'rinadi. Erkaklarning zikr aytishlari ham bunga yorqin misoldir. Asrlar davomida to'plangan ko'hna meros – “Shashmaqom”ning vokal

qismlaridagi taronalar ham xonandalar ansambli tomonidan ijro etilib kelgan. Jumladan, o'zbek folklor qo'shiqlari va maqomalardagi jamoa bo'lib kuylash kelajakda Markaziy Osiyo xalqlari orasida xor san'ati rivojida katta zamin bo'la olgan.

O'zbekiston hududida XX asrning boshlarida teatr truppalari tuzilib, tomoshalar vaqtida spektakl mazmun-mohiyatidan kelib chiqib jo'rlikda ijro etiladigan qo'shiq va ashulalar xor ijrochiligi astasekin o'zbek xalqiga singib borayotganligidan dalolat bo'lgan. Tinglovchilarda kuyga solingan va birgalikda kuylangan matnlar katta taassurot qoldirgan, yuraklarni larzaga solgan. 1918-yilda Xalq konservatoriyasi ochilishi xor san'ati targ'ibotida muhim rol o'ynaydi. Toshkent shahrida birinchi bo'lib jonkuyar ustoz, izlanuvchan inson, ma'rifatparvar Ali Ardobus Ibrohimov rahbarligidagi oltmishta o'zbek o'g'il bolalaridan tashkil topgan maktab teatr jamoasi tuzildi. V.Sakovich tashkil etgan "Zebiniso", Sh.Shoumarovning "Namuna" va S.Yenikeyevaning o'zbek qizlar xor jamoalari tuzilishi ham xor ijrochiligi ommaviylashishida munosib o'rin tutgan. 1936-yilda O'zbekistonda birinchi xor kapellasi tuzilgan va unga M.Lepexin rahbarlik qilgan. Dastlabki konsert dasturi xalqaro miqyosda, xususan, Moskvada bo'lib o'tgan O'zbekiston adabiyoti va san'ati kunlarida namoyish etilib, keng tinglovchilar olqishiga sazovor bo'lgan. Shu yo'sinda Respublika teatrlarida, harbiy okruglarda, o'rta maktablarda, o'quvchilar saroylarida xor jamoalari tuzilishi avj oldi. O'zbekistonda xor ijrochiligini yuqori darajaga ko'tarish uchun yana bir muhim vazifani amalga oshirish joiz edi. Bu kadrlar tayyorlash ishi bo'lib, Toshkent davlat konservatoriyasida (hozirgi – O'zbekiston davlat konservatoriyasi) 1943-yildan boshlab xor dirijorlari tayyorlana boshlandi.

O'zbekistonda professional xor san'ati eng yangi san'at turlaridan biridir. Dastlab havaskorlik darajasida madaniyatimizga kirib kelgan bo'lsa-da, davr talabi bilan ushbu ijrochilik yo'nalishiga ham e'tibor kuchaydi. Professional xor jamoalari tuzish davlat tomonidan amalga oshirila boshlandi. Avvalambor 1952-yilda O'zbek filarmoniyasi qoshida birinchi professional xor kapellasi, maxsus ta'lim jarayonini o'tagan mutaxassislardan tuzildi. Ko'p ovozli yangi davr musiqa asarlarini ijro etish bunday jamoalardan mahoratni talab etar edi. Kapella, deb nomlanadigan bu musiqiy badiiy jamoaga iste'dodli xormeyster S.Valenkov rahbar etib tayinlangan. Bu jamoaga keyinchalik A.Sultonov, R.Xublarov, X.Vohidov, A.Hamidovlar rahbarlik qilishdi.

Hozirda bu jamoaga D.Jdanov boshchilik qilmoqda. Shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekiston xalq artisti Ahad Hamidov rahbarlik qilgan yillarda kapellaning eng gurkiragan, dunyo kezgan davri bo‘ldi. Dasturlaridan jahon klassik asarlari hisoblangan – oratoriyalar, kantatalar, messalar, oda va qasidalar ilk bor o‘zbeklar diyorida jonli ijro etildi. Shu bilan birga turli xalqlar qo‘shiqlari me’yoriga yetkazilib, qayta ishlanib tinglovchilar hukmiga havola etildi. Mutal Burhonov yaratgan xor asarlari, ayniqsa, a kapella qo‘shiqlari tinglovchilar auditoriyasining kengayishiga olib keldi. Kompozitor o‘z asarlarini ushbu jamoa bilan hamkorlikda ijod etdi. Uning “Yorlarim”, “Go‘zal qizga”, “Sayyora”, “Zarragul”, “Bibigul”, “Sari ko‘hi baland” kabi o‘nlab qayta ishlangan, sayqal berilgan a kapella asarlari endilikda bu janrning mumtoz namunalariga aylanib qoldi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, xor asarlari turli janr, uslub va kompozitsiya shakllarga ega bo‘lib, ular orqali xalq kuylaridan tortib murakkab professional musiqagacha bo‘lgan boy meros namoyon bo‘ladi. Zamonaviy xor san’ati an’anaviy usullar bilan bir qatorda, innovatsion texnologiyalar, multimediali ijro, jahon musiqiy oqimlari bilan uyg‘unlashib borayotgan dinamik sohaga aylangan. Xor ijrochiligi ta’limi yosh avlodning estetik didi, musiqiy savodxonligi, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ikromova F. Xor san’atining kelib chiqish tarixi, uning jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.2023. 3-5 may.
2. Jumayeva L.D va Sharafiyeva N. “Xor sinfi va kamer xor. T..,-2017.
3. Toshmatov E. “Drijorlik” O ‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti T..,-2008.
4. Qurbonova M. Drijorlik san’ati tarixi // Oriental Art and Culture journal. 2023. 1-fevral.
5. Sodiqov O. “Xor partiturasini o‘qish”. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. T..,-2004.